

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 12 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARINING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

FROM THE HISTORY OF HYDRAULIC STRUCTURES BUILT USING THE HASHAR METHOD IN THE FERGANA VALLEY

Tursunov Bekzot Yandashevich

University of Business and Science,
Candidate of History, Associate Professor

Abstract. This article discusses the issues of eliminating water shortages in the Fergana Valley and the work carried out on the initiative of the people in this regard, as well as the traditional hashar method.

Keywords: Fergana Valley, hydraulic structures, cotton growing, irrigation structures, irrigation, Great Fergana Canal, North Fergana Canal, South Fergana Canal, Anhor Arig, agriculture.

FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN

Tursunov Bekzot Yandashevich

University of Business and Science,
tarix fanlari nomzodi, dotsent
E-mail: Bek240977@umail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona vodiysidagi suv tanqisligini bartaraf etish masalalari va bu borada xalq tashabbusi bilan amalga oshirilgan ishlar, hamda an'anaviy hashar usuli haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, gidroinshootlar, paxtachilik, sug'orish inshootlari, irrigatsiya, Katta Farg'ona kanali, Shimoliy Farg'ona kanali, Janubiy Farg'ona kanali, Anhor arig'i, dehqonchilik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N03>

O'zbekiston Respublikasi hududining boshqa qismlariga qaraganda Farg'ona vodiysi o'tmishda ham, hozir ham anchagina tabiiy afzalliklarga ega bo'lgan o'lka bo'lib, uning maydoni 22,2 ming kv. km dir. O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kirgan qismi esa 17 ming kv. km ni tashkil etadi [1], qolgan 5,2 ming kv. km hududi Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari tarkibiga kirib, uning 27 foiz hududi adirli yerlardir [2]. Farg'ona vodiysi hududi bo'yicha Qrim yarim orolidan katta, Albaniya va Belgiya hududlarining birgalikda olingan miqdoriga teng [3]. Farg'ona vodiysi g'arbdan sharqqa 370 km gacha, shimoldan janubga 80 km dan 120 km gacha cho'zilgan. Iqlimi mo'tadil, oqin suvning seroblighi, tarkibi jihatidan eng yaxshi serhosil tuproqning mavjudligi juda qadimdan boshlab vodiya sug'orma dehqonchilik xo'jaligining muttasil rivojlanishini ta'minlagan.

Farg'ona vodiysini ilmiy o'rgangan olim akademik A.Middendorf: «Farg'ona vodiysining qadimgi shuhrati shunga asoslanadiki, uning barcha tabiiy sharoiti serunum tuprog'i qishloq xo'jaligiga qulaylik tug'dirgan. Bu shuhrat Samarqandning faxrli dong'i bilan qo'shilib ketgan», deb yozgan edi [4].

Yuqoridagi jihatlarga asoslanib, ko'p olimlar vodiyni «Baxtli Farg'ona», «Turkiston injusi» deb ham yozganlar.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining «Boburnoma» asarida: «Farg'onaning uch tomoni tog'lar bilan o'ralgan, g'arbi ochiqdur, dushman g'arbdan kelishi mumkin» [5], deb yozgan edi.

Farg'ona vodiysi irrigatsiya qurilishi tarixiga uchinchi besh yillik (1938-1942 y.y.) xalq qurilishlari besh yilligi bo'lib kirdi. Besh yillik rejasiga ko'ra, O'zbekiston SSR xalqlari oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri qishloq xo'jaligi, asosan markaz sanoati uchun zarur bo'lgan paxta xom ashyosi bilan ta'minlashni rivojlantirish edi. Bu masalani hal etish uchun bevosita respublikada, shu jumladan, respublikaning asosiy paxta yetkazib beruvchi mintaqasi hisoblangan Farg'ona vodiysida suv muammosini hal etish zarur edi. Respublikada paxtachilik va sug'orish sohasidagi vazifalarni bajarish yuzasidan tadbirlar O'zKP (b) ning 1938-yil iyul oyida bo'lib o'tgan VIII syezdida muhokama qilindi va respublikada irrigatsiya qurilishini keng ko'lamda rivojlantirish uchun birinchi navbatda kolxozchi-dehqonlar yordamiga suyanish lozimligi alohida ko'rsatib o'tildi.

Binobarin, 1923-1938-yillarda garchi respublikada yangidan sug'oriladigan yer maydonlari 320 ming gektarga ko'paygan bo'lsada [6], ammo suv tanqisligidan qishloq xo'jaligining, xususan paxtachilikning rivojlanishi talab darajasida emas edi. Ayniqsa, 1938-yilgi qurg'oqchilik suv tanqisligini yanada kuchaytirib yubordi. O'sha davrda vaqtli matbuotda ta'kidlanishicha, keyingi 15-20 yil ichida 1938-yilgidek suv tanqisligi sezilmagan.

Sug'orish tarmoqlarini tezkorlik yo'li bilan qurish xalq harakatini, ya'ni katta suv uchun an'anaviy hashar usulini qo'llashni birinchi bo'lib Farg'ona viloyati kolxozchi-dehqonlari boshlab berdilar. 1938-yil mart oyida Farg'ona vodiysida eng suvga tanqis bo'lgan Pop rayoni mehnatkashlari o'z kuchlari bilan davlatdan hech qanday yordam olmay o'n kun ichida 15 km li Anhor arig'ini qazidilar. Chodak soydan suv oluvchi bu kanal rayon hududidagi ming gektar bo'sh yotgan yangi yerlarni sug'orish imkonini berdi.

Poplik dehqonlarning boshlab bergan bu tashabbusi butun O'zbekistonda katta suv uchun harakatning kelib chiqishi va boshlanishiga turtki bo'ldi. U tezda butun vodiya, respublikaga yoyildi va hamma joyda mehnatkashlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Chunki, fikrimizcha, katta irrigatsiya inshootlarini qurish bilan yangi yerlarni sug'orishni, dehqonchilik qilinayotgan yerlardagi suv ta'minotini yaxshilash evaziga xalqimiz og'ir bo'lsada, markaziy hukumat tomonidan o'tkazilayotgan turli bosimlardan qutilishning birdan-bir to'g'ri chorasi deb bildi.

1939-yilning fevral oyida kolxozchilarning yig'ilishida marg'ilonlik mirob Umarjon Rasulov hashar yo'li bilan Isfayramsoy suvlarini Shohimardonga o'tkazish uchun Logon kanalini qurish tashabbusi bilan chiqdi. Bu fikrni Oltiariq, Toshloq, Quva va Farg'ona rayonlari kolxozchilari qo'llab-quvvatlashdi.

Farg'ona kolxozchilarining taklifini O'zbekiston Respublikasi hukumati ma'qulladi. Injenerlar, irrigatorlar, tajribali miroblar bilan hamkorlikda kanal loyihasi tayyorlandi. Loyihaga ko'ra, kanalni 8 oy mobaynida qurib bitkazib, 1940-yili ishga tushirish belgilandi. Biroq, mehnatkash dehqonlarning kuch-g'ayrati, mehnati tufayli 1939-yil 12-martda qurilishi boshlangan kanal 29-martda, ya'ni 17 kun ichida qurib bitkazildi. Misli ko'rilmagan qisqa vaqt ichida qazuvchilar 320 ming kubometr tuproq ishlarini bajardi. Kanalning umumiy uzunligi 32 km, chuqurligi 2 metrdan 6 metrgacha, eni 3 metrni tashkil etar edi. Bu kanal suvlari bilan Farg'ona viloyatining 5 rayonida suv ta'minoti yaxshilandi va qo'shimcha 6-7 ming gektar yangi

yerlar o'zlashtirish imkoniyati yaratildi [7]. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hali bu davrda kanal quruvchilarda yer qazuvchi texnika haqida tasavvur ham yuq edi. Kanal qazish ishlari asosan ketmon va zambil bilan bajarildi. Kanal qazish ishlarida, ayniqsa yoshlar namuna ko'rsatdilar.

1939-yildayoq butun respublika bo'ylab bir necha kanallar hashar yo'li bilan barpo etildi. Masalan, 20 km uzunlikdagi Tanachi Buqa (Toshkent viloyati) kanali, S.Orjonikidze nomli (Buxoro viloyati) kanali, Katta Zarafshon kanali (Samarqand viloyati), Mayyob, Bo'zsuv-qipchoq (Xorazm viloyati) kanallari shular jumlasidandir. Natijada amalga oshirilgan ishlar tufayli butun respublikada 103 ming gektar tashlandiq va partov yerlarda sug'orish ishlari qayta tiklandi [8].

Arxiv hujjatlarida ko'rsatilishicha, 1939-yili hammasi bo'lib O'zbekistonda 1338 kmli uzunlikda 55 ta yangi kanallar qazilgan. Bu qurilishlarda xalq kuchi bilan 25 million kubometrdan ortiq yer qazish ishlari bajarilgan. Bu bajarilgan ishlarning qiymati 165744, 3 million so'mni tashkil etdi.

Yuqorida zikr etilgan kanallarning bunyod etilishi mehnatkash o'zbek xalqining ulkan bunyodkorligining yorqin namunasidir.

1939-yilning avgust-sentyabr oylarida esa Farg'ona vodiysidagi eng katta irrigatsiya inshooti — 280 km uzunlikdagi Katta Farg'ona kanali bunyod etildi [9]. O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston Respublikalarida 500 ming gektar yer maydonida suv ta'minotini yaxshilashga va 70 ming gektar yangi yerni o'zlashtirishga imkon bergan mazkur kanal irrigatsiya qurilishi tarixiga xalq harakati ijodining qimmatbaho durdonalaridan biri bo'lib kirdi. Katta Farg'ona kanali qurilishini tashkil etish uchun qurilajak kanal o'zani ikkita katta uchastkaga bo'lindi. Bu uchastkalarni birinchisi Norin daryosidan boshlanib Qoradaryoga borib qo'shiluvchi Tentaksoygacha, ikkinchisi esa Qoradaryodagi Kuyganyor suv to'g'onidan boshlanib Tojikiston SSR chegarasigacha bo'lgan hududni o'z ichiga olardi. O'z navbatida kanalning ushbu uchastkalari viloyatlar, tumanlar, jamoa xo'jaliklari o'rtasida taqsimlanib, jami 33 ta qurilish uchastkalarida tuproq qazish ishlarini tashkil etish rejalashtirildi.

1939-yili kanal qurilishi asosan O'zbekiston Respublikasi hududida, qisman Tojikiston va Qirg'iziston Respublikalari hududlarida olib borildi. Yil oxirigacha kanalning umumiy uzunligi 280 km, eni 25-30 metrni tashkil etdi. 1940-yili kanal qurilishi Tojikiston hududida olib borildi va 70 km li kanalning ikkinchi navbati qurildi. Bu esa kanalning umumiy uzunligini 350 km ga yetkazdi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan kanal qurilishida juda katta tashkiliy ishlar amalga oshirildi. Kanal qurilishida qatnashayotgan quruvchilarga 704 ta tibbiy xodimlar, 1072 ta aloqachilar xizmat ko'rsatdilar. Har bir qurilish qatnashchisining kunlik ish normasi qilib 2 metr kub tuproq ishlari belgilandi. Kanal 45 kunda qurib bitkazildi. Bu kanal O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston hududlaridan o'tgan bo'lib, O'zbekistonning 32 ta paxtakor tumanlarini, 5 ta shahrini, Tojikistonning 4 ta tumani suv ta'minotini yaxshiladi. O'sha davr kommunistik mafkurasi turli millat vakillari qatnashgan bu kanal qurilishini «Xalqlar do'stligining yorqin timsoli» sifatida talqin qildi. Xorijiy olimlar asarlarida esa kanal qurilishi «ommaviy-jismoniy mehnatdan» foydalanish yo'li bilan qurilgan deb baho berilgan.

O'zbekiston hukumati 1940-yil 20-yanvarda «Shimoliy Farg'ona kanalining qurilishi to'g'risida» qaror qabul qildi [10].

Qarorda o'zbek xalqining suv uchun kurashida qo'lga kiritgan g'alabalari alohida qayd etilib, irrigatsiya ishlarini yanada kengaytirish asosida ekin maydonlarini ko'paytirish, yangi o'zlashtirilgan 100 ming gektar yerga paxta ekib, paxta hosildorligini o'rta hisobda 26 sentnerga yetkazish vazifasi qo'yildi. Qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, Farg'ona vodiysida 1940-1944-yillar ichida sug'orilayotgan yerlarda suv ta'minotini yaxshilash va 125 ming gektar yangi yerlarni o'zlashtirish uchun qator irrigatsiya inshootlarini barpo etish, shu jumladan, Namangan vohasida Yangiariq kanalini tubdan rekonstruksiya qilish, Norin daryosidan suv oluvchi yangi inshoot qurish va Kosonsoy daryosida 12 ming gektar yangi yerni sug'orish quvvatiga ega bo'lgan 10 million kubometr suv sig'adigan suv ombori qurish ko'zda tutildi. Shuningdek, Plenumda Shimoliy Farg'ona va Janubiy Farg'ona kanallarini qurishning muddatlari belgilandi. Qurilajak Farg'ona kanalini 5 fevraldan boshlab, yer qazish ishlarini 10 maygacha, Janubiy Farg'ona kanalini esa 20 fevralda boshlab, yer qazish ishlarini 15-aprelda tugatish ko'zda tutildi. 1939-yilda Yangiariq va Rozenbax kanallaridan suv ichuvchi Pop, To'raqo'rg'on rayonlari hamda Tojikiston SSRning Asht rayoni mehnatkashlari suv tanqisligiga xotima berish uchun o'z kuch va mablag'lari bilan Yangiariq va Rozenbax kanallarini uzaytirish hamda kengaytirish tashabbusi bilan chiqdilar. Bu tashabbus ikkala respublika hukumatlari tomonidan ma'qullangandan so'ng «Sazvodproiz» institutining injeneri V.N.Simakov boshchiligidagi A.M.Tyulenev, A.D.Kuznesova va boshqalar ishtirokida kanal trassasida qidiruv-loyihalash ishlari boshlandi.

Bosh loyihaga ko'ra, Shimoliy Farg'ona kanalining uzunligi 163 km ni tashkil etdi. Kanal Namangan viloyatining Uychi, Yangiqo'rg'on (Chortoq), Namangan, To'raqo'rg'on, Kosonsoy, Pop rayonlari hamda Tojikiston SSRning Leninobod oblasti Asht rayoni territoriyasida 19 ming gektar yangi yerlarni suv bilan ta'minlashi hamda ilgaridan sug'orib kelinayotgan 66 ming 732 gektar yerda suv ta'minotini yaxshilashi ko'zda tutildi. Kanal Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi xo'jaliklarda dehqonchilik, polizchilik, bog'dorchilikni iqtisodiy jihatdan rivojlantirish uchun ham xizmat qilishi kerak edi.

Kanal trassasi 20 ta qurilish uchastkalariga bo'lindi va ularda yer qazish ishlari 10 fevraldanoq boshlab yuborildi. Bu ishlarda Pop, Uychi, Kosonsoy, Yangiqo'rg'on, Namangan va To'raqo'rg'on rayonlari mehnatkashlari birinchilardan bo'ldilar. Birinchi kuni trassada 38-40 ming kishi ishladi. Ertasi kuni hasharchilarga Uchqo'rg'on va uzoq Izboskan, Oyim, Paxtaobod (Andijon viloyati) kabi rayonlardan ham yordamchi hasharchilar keldilar. Ular o'z kuchlari bilan 1 million kubometr tuproq qazish ishlarini bajarishni zimmalariga oldilar.

Kanal qurilishida har ikkala respublikada har kuni o'rta hisobda 90 ming kishi ishtirok etdi. Tuproq qazish ishlarida, ayniqsa, Uychi rayonining «Qizil to'lqin» kolxozidan kelgan Abdug'ani Qozoqov va Yo'ldosh Tillaboyevlar zarbdor mehnat qilib kunlik tuproq tashish normalarini 120-150 protsent qilib bajardilar.

Kanal qurilishi Chust etagidagi jarliklarga kelganda to'xtab qoldi. Kanal trassasini jarlik va o'pqnlar ustidan olib o'tish uchun temir nov yetishmas edi. Buning ustiga tosh-shag'alni kesish, uyish kerak edi. Bosh loyiha bo'yicha shu Ugrisoy va Kaptarxona soy kesishgan joyida ikkita temir-beton dyuker qurish kerak edi. Qurilishda temir, sement va yog'och yetishmas, ikkinchidan esa bu ishlarni bajarish tufayli kanal qurilishi cho'zilib ketar edi. Shuning uchun tajribali miroblar bu ikkita gidroinshoot o'rniga 3,5 kilometr uzunlikda, 25-30 metr chuqurlikda aylanma kanal qazishni taklif qildilar.

Shimoliy Farg'ona kanalida yer qazish ishlari asosan 35 kun ichida bajarildi. Hammasi bo'lib 5382109 kubometr tuproq ishlari bajarildi. Bu ishlarni bajarish uchun 2358,4 ming ish kuni sarflandi. Qurilish ishlarining qiymati smeta bo'yicha 35025 ming so'mni tashkil etdi. Qurilish davomida 2358 tonna sement, 1445 kubometr yog'och, 498,5 tonna temir va boshqa materiallar ishlatildi. Trassada 10 ta eski inshoot rekonstruksiya qilindi. 4 ta akveduk, 6 ta dyuker, 40 ta mayda yog'och lotoklar, 17 ta suv taqsimlagich barpo etildi. Shularning ichida eng yirik inshoot Rezaksoydagi dyuker va Janjalsoyda qurilgan temir- beton akveduklardir. qurilishda hammasi bo'lib 620 ta injener-texnik xodimlar ishladi.

Shimoliy Farg'ona kanaliga 23 iyul kuni suv ochildi va shu tariqa Norin daryosining suvlari birinchi marta Pop rayoni dalalariga yetib keldi. Kanal shu yili hammasi bo'lib Norin daryosidan Tojikistonning Qamishqo'rg'on dashtigacha bo'lgan yerlarda 19000 gektar yangi yerlarni (shu jumladan, 5590 gektar Tojikiston territoriyasida) sug'ordi.

Bu davrda Farg'ona vodiysida qurilgan yana bir yirik sug'orish-qurilish inshooti Janubiy Farg'ona kanalidir. Bu kanal trassasi 1935-1936-yillarda qurib ishga tushirilgan Shahrixonsoydan suv oluvchi va tashlamasi Quvasoyga tushuvchi Quva tarmog'i asosida qurildi. Bu tarmoqning asosiy vazifasi kam suvli Isfayramsoyning suv ta'minotini yaxshilash va Aravonsoy sug'orish sistemasining quyi qismini suv bilan ta'minlash edi. 1939-yili bu tarmoq Margilonsoygacha uzaytirildi va Aravonsoydan Quvasoygacha yangi kanal trassasi qazildi. Shu tariqa bu sug'orish inshooti Janubiy Farg'ona kanali nomini oldi. Kanal qurilishi 1940-yilning 16-fevralida boshlanib, tuproq qazish ishlarida 48 ming hasharchilar, 927 ta injener va texniklar, 168 ta tibbiyot xodimlari, 1310 ta savdo xodimlari, 500 ta san'atkorlar ishtirok etishdi. Shu yilning 27 iyulida kanal ishga tushirildi. Kanalning umumiy uzunligi 93 kilometrni tashkil etdi [11]. Kanal trassasida bitta akdevuk, 16 ta dyuker, 52 ta suv o'tkazgichlar qurildi.

Farg'ona vodiysi mehnatkashlari tomonidan boshlangan katta suv uchun an'anaviy hashar usulining qo'llanilishi evaziga vodiydagi mavjud sug'orish inshootlaridagi suv ta'minotini yaxshilashga hamda yangi qurilgan sug'orish inshootlari suvlari bilan yangi yerlarni o'zlashtirishga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari miqdorini ko'paytirishga erishdilar.

Ushbu gidra inshootlar O'zbekiston xalqlarining mehnatsevarligi namunasini yorqin misoli sifatida tarix sahifalaridan joy oldi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Узбекская ССР. Экономико-географическая характеристика. - М.: 1956, - С. 286.
2. Дадахужаев А. Наманган адирларида экологик муаммоларнинг айрим жиҳатлари. Цивилизация. Экология. Инсон. //Илмий-амалий конференция материаллари. - Т.:1999. - 99-бет.
3. Жалилов С. Фаргона водийсининг суғорилиши тарихидан. -Т.: «Фан», 1977. - 13-бет.
4. Миддендорф А. Очерки Ферганской долины. - СПб., 1882. - С. 12.
5. Бобур З. М. «Бобурнома». -Т.: 1989. - 8-бет.
6. Аминова Р. Великое народное движение в ирригационном строительстве Узбекистана (1939-1940 г.г.). -Т.: 1957. - С. 36.
7. Третьяков Е. Народные строки. // Гидротехника и мелиорация. 1977 г., № 9. - С. 15.
8. История Узбекской ССР. Том 4. -Т.: 1968. -С. 30.
9. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида. -Т.: «Шарқ», 2001. -407-бет.
10. Насритдинов Қ. Фарғона водийсининг суғорилиш тарихи. Т.: “Янги аср авлоди”, 2009. -162-бет.
11. Ирригация Узбекистана. Том 2. —Т.: 1975. — С. 83.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).